MAKTAB ÖQUVÇILARIDA METAKOGNITIV STRATEGIYALAR ORQALI INGLIZ TILINI ÖRGANIŞ SAMARADORLIGINI OŞIRIŞ

Xaydaraliyeva Asila Dilmurod qizi,
Nordic xalqaro universiteti magistranti
DOI: 10.67620/yoshlarvailm.0340021

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab öquvçilarining ingliz tilini örganiş jarayonida metakognitiv strategiyalardan foydalanişi, ularning ta'lim samaradorligini oşirişdagi örni hamda amaliy qöllaniş imkoniyatlari tahlil qilinadi. Metakognitiv strategiyalar öquvçiga öz bilim va könikmalarini anglaş, öquv faoliyatini rejalaştiriş, jarayonni nazorat qiliş va erişilgan natijalarni baholaş imkonini beradi. Maqolada rejalaştiriş, monitoring va baholaş kabi asosiy strategiyalar yoritilib, ularni tinglab tuşuniş, öqiş, gapiriş va yoziş könikmalarini rivojlantirişda qöllaş yöllari körib çiqiladi. Şuningdek, strategiyalarni öquvçilarning yoşiga moslaştiriş masalasi, öqituvçining metakognitiv kompetensiyalarni şakllantirişdagi roli hamda mustaqil ta'lim könikmalarini rivojlantirişga oid tavsiyalar bayon etiladi.

Kalit sözlar: metakognitiv strategiyalar, ingliz tili ta'limi, maktab öquvçilari, mustaqil ta'lim, öz-özini nazorat qiliş, rejalaştiriş, monitoring, öz-özini baholaş, yoşga moslaştiriş.

Аннотация. В статье анализируется использование метакогнитивных стратегий учащимися школ в процессе изучения английского языка, их роль в повышении эффективности обучения и возможности практического применения. Метакогнитивные стратегии позволяют учащимся осознавать собственные знания и умения, планировать учебную деятельность, контролировать ход её выполнения и оценивать достигнутые результаты. В статье рассматриваются основные стратегии, такие как планирование, мониторинг и оценивание, а также способы их применения для развития навыков аудирования, чтения, говорения и письма. Кроме того, освещаются вопросы адаптации данных стратегий к возрастным особенностям учащихся, роль учителя в формировании метакогнитивных компетенций и рекомендации по развитию навыков самостоятельного обучения.

Ключевые слова: метакогнитивные стратегии, обучение английскому языку, школьники, самостоятельное обучение, самоконтроль, планирование, мониторинг, самооценка, возрастная адаптация.

Abstract. This article examines the use of metacognitive strategies by school students in the process of learning English, their role in improving learning effectiveness, and their practical applications. Metacognitive strategies enable learners to become aware of their own knowledge and skills, plan their learning activities, monitor the learning process, and evaluate the results achieved. The article discusses key strategies such as planning, monitoring, and evaluation, as well as ways of applying them to develop listening, reading, speaking, and writing skills. Furthermore, it addresses the adaptation of these strategies to students' age-related characteristics, the teacher's

role in developing metacognitive competencies, and recommendations for fostering independent learning skills.

Keywords: metacognitive strategies, English language teaching, school students, independent learning, self-monitoring, planning, monitoring, self-assessment, age-related adaptation.

Kiriş

Bugungi globallaşuv şaroitida xorijiy tillarni, ayniqsa, ingliz tilini biliş kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ingliz tili xalqaro muloqot, fan va texnologiyalar sohasida keng qöllangani bois, Özbekistonda ham bu tilni maktab yoşidanoq örgatişga alohida e'tibor qaratilmoqda va bu yönalişda ijobiy natijalarga erişilmoqda. Biroq tilni özlaştiriş faqat grammatik qoidalarni yodlaş bilan çeklanib qolmaydi. Öquvçilarning muloqotga erkin kirişişi va fikrini bemalol bayon eta olişi uçun mos metod hamda texnikalarni tanlaş pedagoglarning asosiy vazifalaridan biridir. Şu bilan birga, öquvçini rağbatlantiriş va unda bilimga qiziqiş uyğotiş faqat öqituvçining zimmasidagi vazifa emas. Öquvçi ham, öqituvçi ham dars jarayonida öz faoliyatini muntazam tahlil qilib, nazorat qilib borişi va zarur bölsa, uni takomillaştirişi lozim. Fanda bunday yondaşuv metakognitiv strategiyalar deb yuritiladi.

Adabiyotlar tahlili

"Metakognitsiya" tuşunçasini ilk bor ilmiy asoslagan olim J.H. Flavell (1979) dir. Uning fikriça, metakognitiv bilim öquvçiga qanday örganayotganini anglaş, özига mos usullarni tanlaş va bilimini mustaqil rivojlantiriş imkonini beradi. Şu nuqtai nazardan qaraganda, metakognitiv strategiyalar yuqori sinf öquvçilari uçun qulayroq körinadi, çunki ularning aqliy rivojlaniş darajasi yuqoriroq bölib, dars jarayonini mustaqil tahlil qila oladilar. Boşlanğiç sinf öquvçilariga kelsak, ularda bu könikmalar hali şakllaniş bosqiçida böladi. Şu sababli örganilayotgan mavzuni nazorat qiliş va özlaştiriş uçun mos usulni tanlaşda ularga köpinça öqituvçi yoki ota-onalar yordam beradi. Biroq bu kiçik yoşdagi öquvçilar metakognitiv strategiyalardan umuman foydalana olmaydi, degani emas: töğri yönaltirilganda ular ham uşbu strategiyalarni, avvalo, sodda şaklda qöllay oladi, faqat buning uçun öqituvçi kömagi köproq talab etiladi.

Flavell modeliga köra, metakognitiv bilim uçta asosiy tarkibiy qismdan iborat:

1. Şaxs bilimi: öquvçining öz imkoniyatlari, kuçli va zaif tomonlari, diqqati, xotirasi hamda qanday örganişi haqidagi tuşunçasi. Masalan: "Men bu mavzuni tinglab emas, yozib çiqib yaxşiroq eslab qolaman."

2. Vazifa bilimi: oldidagi öquv yoki amaliy topşiriqning xususiyatlari, murakkabligi va hajmi haqidagi bilim. Masalan: "Bu matn oddiy hikoyadan murakkabroq ekan, unga köproq vaqt ajratişim kerak."

3. Strategiya bilimi: muayyan maqsadga erişiş uçun qaysi usul eng samarali ekanini biliş va uni tanlay oliş. Masalan: "Murakkab formulani yodlaş uçun uni çizma sxema körinişida tuzib çiqişim kerak."

Bu tarkibiy qismlar öquvçidan soliştiriş, tahlil qiliş, turli usullarni sinab köriş va vazifa murakkabligini baholaş kabi könikmalarni talab qiladi. Boşlanğiç sinf

öquvçilarida esa bu könikmalar hali yetarli rivojlanmagan bölgani uçun ularning töliq şakli köproq yuqori sinflarda namoyon böladi. Şunday bölsa-da, ularning sodda körinişlarini kiçik yoşdan boşlab şakllantiriş mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Til örganişga oid ilmiy adabiyotlarda (masalan, ÖMalley va Çamot, 1990) metakognitiv jarayon odatda quyidagi asosiy bosqiçlarga ajratiladi:

Rejalaştiriş (planning): işni boşlaşdan oldin maqsad qöyiş, vaqtni taqsimlaş va qaysi usuldan foydalanişni belgilaş.

Monitoring (kuzatiş): iş jarayonida "Men buni töğri tuşunyapmanmi?", "Maqsadimga yaqinlaşyapmanmi?" kabi savollar orqali öz faoliyatini kuzatib boriş.

Baholaş va tuzatiş (evaluation and reflection): natijani tahlil qiliş, xatolarni köra biliş va zarur bölsa, strategiyani özgartiriş.

Bu bosqiçlarni 11-sinf öquvçilari misolida körib çiqsak, ularda oliy ta'limga tayyorgarlik jarayoni boşlangan böladi va har bir fan böyiça öz öqişini reja asosida taşkil etişlari zarur. Aynan rejalaştiriş bosqiçi buni amalga oşirişda ularga yordam beradi. Monitoring esa örganilayotgan sohani sinab köriş va egallanayotgan könikmalar darajasini aniqlaşga imkon beradi. Masalan, öquvçi inglizça matnni öqişdan oldin öz oldiga maqsad qöyadi, öqiş davomida tuşunmagan örinlarini belgilab boradi, söngra natijani tekşirib, keyingi safar boşqaça usulni tanlaydi.

Boşlanğiç sinflarda esa strategiyalarni yoşga moslaştiriş muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yoşdagi bolalar uçun rejalaştiriş, kuzatiş va baholaşni murakkab tuşunçalar sifatida emas, balki sodda savollar va öyin elementlari orqali kiritiş maqsadga muvofiq. Masalan, öqituvçi "Bugun nimani örganamiz?", "Qaysi sözni tuşunmadim?", "Nima yaxşi çiqdi?" kabi savollarni ovoz çiqarib berişi, öz fikrlaş jarayonini bolalar oldida namoyiş etişi (modellaştiriş) mumkin. Şuningdek, rasmli nazorat varaqlari, tabassumli belgilar va "svetofor" usuli (yaşil - tuşundim, sariq - qisman tuşundim, qizil - tuşunmadim) öquvçilarga öz özlaştirişini baholaşda yordam beradi. Vaqt ötib, bolalar bu amallarni mustaqil bajarişga örgana boradi, öqituvçi kömagi esa bosqiçma-bosqiç kamaytiriladi.

Metakognitiv strategiyalarni ingliz tilining tört asosiy könikmasiga ham tatbiq etiş mumkin. Tinglab tuşunişda öquvçi audioni tinglaşdan oldin mavzu böyiça taxmin qiladi; öqişda matnning murakkabligini baholab, öqiş tezligini moslaştiradi; gapirişda öz nutqidagi xatolarni payqab, ularni tuzatişga harakat qiladi; yozişda esa rejani tuzib, tayyor matnni qayta körib çiqadi.

Xulosa

Metakognitiv strategiyalar maktab öquvçilarining ingliz tilini örganiş jarayonida mustaqil fikrlaş, öz bilimlarini tahlil qiliş va öquv faoliyatini samarali taşkil etiş könikmalarini rivojlantirişda muhim ahamiyatga ega. Rejalaştiriş, monitoring va baholaş bosqiçlarining özaro uyğunligi öquvçiga aniq maqsad qöyiş, özlaştirişdagi kamçiliklarni aniqlaş hamda ularni bartaraf etiş yöllarini tanlaş imkonini beradi. Şu bilan birga, bu strategiyalar yuqori sinf öquvçilari uçun töliqroq namoyon bölsa-da, boşlanğiç sinf öquvçilari ham ularni qöllaşi mumkin; buning uçun strategiyalar yoşga

moslaştirilib, öqituvçi kömagi bilan sodda şaklda joriy etilişi lozim. Şunday yondaşuv ta'lim samaradorligini oşirişga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Flavell J.H. Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry. American Psychologist, 1979.

2. O'Malley J.M., Chamot A.U. Learning Strategies in Second Language Acquisition. Cambridge: Cambridge University Press, 1990.

3. Veenman M.V.J., Van Hout-Wolters B.H.A.M., Afflerbach P. Metacognition and Learning: Conceptual and Methodological Considerations. Metacognition and Learning, 2006

4. Oxford R.L. Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. New York: Newbury House Publishers, 1990.